



# **TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT**

*2021- yil 1- aprel holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*


*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*






Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 aprel holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4

30 534




Mas'uliyati  
cheklangan jamiyat

4 042



Oilaviy korxonona

278



Unitar korxonona

6 525



Xususiy korxonona

50



Aksiyadorlik jamiyati


320



Boshqa korxonalar


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda)




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **24,6** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliq xo‘jaligi






# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,1 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**446**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**8 106**

Ishlab chiqarish sanoati

**67**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**181**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1-aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 8 800 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 10,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 83,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 24,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 0,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 3,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,9** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**15,5** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**18,5** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**30,0** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **34,6** foizga oshdi




## Xususiy korxonalar





## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1-aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 653 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 5,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 52,5 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 40,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 26,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 40,0 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1-aprel holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 13 205 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,0 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 27,3 % ga (jami savdodagi ulushi 69,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 26,8 % ga (jami savdodagi ulushi 23,8 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 16,1 % ga (jami savdodagi ulushi 6,1 %) o'sishidir.



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

736



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

23



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

25



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



311

yashash bo'yicha xizmatlar




3 217


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 528 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 8,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 91,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 8,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,7 %) o'sishidir.



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)







Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 4 520 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 067 taga yoki 30,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 042 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 956 taga yoki 31,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 314 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga yoki 91,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 34 357 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 980 taga yoki 21,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 30 534 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 641 taga yoki 22,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 815 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117 taga yoki 6,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 1 470 tani tashkil etib, ulardan 1 335 tasi yoki 90,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 140 taga yoki 10,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 37 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi  
(2021- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonaga	xorijiy korxonaga
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1470</b>	<b>739</b>	<b>731</b>
Oqqo'rg'on t.	14	6	8
Ohangaron t.	84	36	48
Bekobod t.	11	8	3
Bo'stonliq t.	65	34	31
Bo'ka t.	14	9	5
Quyichirchiq t.	46	25	21
Zangiota t.	184	89	95
Yuqorichirchiq t.	127	62	65
Qibray t.	159	83	76
Parkent t.	25	14	11
Piskent t.	21	11	10
O'rtachirchiq t.	88	42	46
Chinoz t.	24	11	13
Yangiyo'l t.	80	29	51
Toshkent t.	86	55	31
Nurafshon sh.	62	29	33
Olmaliq sh.	47	13	34
Angren sh.	109	72	37
Bekobod sh.	26	17	9
Ohangaron sh.	50	22	28
Chirchiq sh.	83	51	32
Yangiyo'l sh.	65	21	44



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent viloyati**

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:71 202-86-83**